ISSN 2181-3187

# SIFATLI TA'LIM - TARAQQIYOT POYDEVORI

***Sobirova Azizaxon Maribjon qizi***
*Farg'ona Davlat Universiteti Pedagogika psixologiya fakulteti II bosqich talabasi.*
***Nuriza Jigitali qizi***
*Farg'ona Davlat Universiteti Pedagogika psixologiya fakulteti I bosqich talabasi.*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada davlatimizni har tomonlama rivojlantirishda ta'lim- tarbiyaning tutgan o'rni haqida batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Sifatli ta'lim, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, kadrlar tayyorlashning mukammal usullari, professional ta'lim.

Ta'lim tushunchasi - inson tomonidan aqliy yoki amaliy taraflama o'zlashtiriliadigan bilimlar majmuasidir. Ta'lim jarayonining ijobiy tomonlari ko'p va bu jarayonda foydali bilimlar beriladi. Sifatli ta'lim orqali insonlarning shaxsiy sifatlari, dunyoqarashlari o'sadi, qobiliyatlariga sayqal beriladi. Ta'limdan ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun turli metodlardan, ko'rgazmalardan foydalaniladi. Ta'lim O'zbekistonda jamiyatni ijtimoiy- iqtisodiy, ma'naviy va madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi hisoblanadi. "Ta'lim to'g'risida" gi qonunda fuqarolarning ta'lim olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish strategik jihatdan belgilangan. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da ta'lim tizimimizni yaqin kelajakdagi aniq rivojlanish yo'li ko'rsatib berilgan. Ta'lim- tarbiyaning asosiy vazifasi - shaxsning to'laqonli psixik va shaxs taraqqiyotini ta'minlashdir. "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunga ko'ra professional ta'lim boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim darajalariga ajratiladi. Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida kunduzgi ta'lim shaklida 2 yillik integratsiyalashgan dastur asosida bepul amalga oshiriladi. O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov- shartnoma asosida davomiyligi 2 yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi. O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov shartnoma asosida davomiyligi kamida 2 yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.Bugungi kunda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasini rivojini jadallashtirish masalasi muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishlari ham o'tkazilmoqda. Davlatimiz rahbari "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan taraqqiyotning tamal toshi mamlakatni qudratli, millatni buyuk, qiladigan kuch, ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Shuning uchun ham O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Maktabgacha ta'lim, maktab

ISSN 2181-3187

va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy tadqiqot muassalari faoliyatida sifat o'zlarishlari ro'y bermoqda.

"Biz ustozni otaday ulug' deb bilgan, doimo ardoqlagan ma'rifatparvar xalqning vakillarimiz.Men ham o'qituvchi, muallim deganda o'zim uchun eng aziz va hurmatli bo'lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta'lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan" - dedi davlatimiz rahbari yurtimizda bo'lib o'tgan yeg'ilishda.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi davomida 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb e'lon qilindi. Bu esa mamlakatimizda ta'limga bo'lgan e'tiborning yanada o'sishiga sabab bo'ldi. "Ta'lim sifatini yanada oshirish- yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir! Ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlarida borib o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, sifatini oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal qilishimiz kerak" - deydi Shavkat Mirziyoyev.

Mamlakatimizda bu kabi qator islohotlarning olib borilishidan ko'zlangan maqsadlardan biri shundan iboratki, sifatli ta'limni yo'lga qo'yish orqali mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va takomillashtirish hamda mamlakatimiz uchun kerakli kadrlar tayyorlab berishdan iboratdir. Olib borilayotgan islohotlar jarayonida azal-azaldan rivojlanib borayotgan xalqimizning ta'lim tizimi har tomonlama rivojlana boshladi va sifatli ta'lim tushunchasini yaqqol ko'rsatmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Egamberdiyev, O. A. O., Turdaliyev, A. Y. O., & Maxamadjonov, J. Z. O. (2021). Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari. *Science and Education*, *2*(11), 985-991.
2. Zarnigor, R. A. Q., Egamberdiyev, O. A. O. G. L., & Sotvoldiyeva, O. M. R. Q. (2021). Pedagogik kompetentlikning: nazariy va amaliy tahlili. *Science and Education*, *2*(9), 309-314.
3. Egamberdiyev, O. A. O., Sotvoldiyeva, O. M. Q., & Turdaliyev, A. Y. O. (2021). PEDAGOGIK MAHORATNING MUAMMOLI O'ZLASHTIRISH YO'LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(10), 535-542.
4. Yusufovich, A. A., & O'G'Li, E. O. A. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOIK ASOSLARI. *Science and innovation*, *1*(B3), 40-46.
5. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O 'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TARIXI MASALALARI. *Journal of new century innovations*, *14*(3), 33-36.

6. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O'QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Journal of new century innovations*, *4*(1), 52-59.
7. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. *PEDAGOGS jurnali*, *18*(1), 220-225.
8. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, *8*(7).
9. Tojimamatov, J., & Egamberdiyev, O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON.
10. Egamberdiyev, O., Kholdarova, Z., & Khusanova, M. (2022). THE ORDER OF THE APPEARANCE OF THE PEOPLE'S DIPLOMACY OF THE GREAT SILK ROAD COUNTRIES.
11. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). NEED TO FORM CREATIVE COMPETENCE IN EDUCATORS. *Educational Research in Universal Sciences*, *1*(3), 162-165.
12. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Educational Research in Universal Sciences*, *1*(3), 166-169.
13. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). DIFFERENT APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. *Educational Research in Universal Sciences*, *1*(3), 158-161.
14. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(4), 63-65.
15. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(4), 63-65.
16. Iqboljon O'g'li, T. J., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON. *PEDAGOGS jurnali*, *9*(3), 4-7.